



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 22-noyabr

664-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholi muammolarini hal qilishda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-oktabrdagi 695-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 564-6-0-Q/24-son qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholi muammolarini hal qilishda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-oktabrdagi 695-son hamda shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi 564-6-0-Q/24-son qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi 564-6-0-Q/24-son qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-oktabrdagi 695-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 24-maydagi PF-76-son Farmoniga muvofiq:

“Raqamli Toshkent” tajribasini bosqichma-bosqich Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda joriy etish;

joylarda aholi muammolarini hal qilishga qaratilgan “Xalq nazorati” platformasini (keyingi o‘rinlarda - platforma) ishga tushirish, shuningdek, platforma orqali kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqish muddatlari hamda ularga mas‘ul bo‘lgan vazirlik va idoralar, shu jumladan, ularni nazoratdan yechishga vakolatli idorani belgilashni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda 2025-yil 1-apreldan boshlab platforma orqali quyidagilarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi tizim joriy etilishi:

aholiga qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish, suv, kanalizatsiya, isitish tizimi, elektr va boshqa muhandislik ta‘minoti, transport va yo‘l, shuningdek, hudud infratuzilmasida mavjud muammolar hamda aholini qiziqtirgan boshqa masalalar yuzasidan real vaqt rejimida xabar berish imkoniyati yaratilishi, bunda kelib tushgan xabarlar tegishli mas‘ul idoralarga yo‘naltirilishi hamda ular tomonidan ko‘rib chiqilishi va hal etilishi;

kelib tushgan xabarlarni mas‘ul idoralar tomonidan ko‘rib chiqish va hal etish jarayonining har bir bosqichida xabar beruvchilarga kuzatib borish imkoniyati yaratilishi;

aholi muammolarini hal qilishda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati o‘rnatilishi;

joylarda muammoli masalalarni aniqlash va hal etish bo‘yicha vakolatli organlarning aholi bilan samarali hamkorligi yo‘lga qo‘yilishi;

kelib tushgan xabarlar aholining roziligi asosida nazoratdan yechilishi;

aholi muammolarini hal qilishda davlat organlari va tashkilotlarining reytingi yuritilishi hamda reyting natijalari jamoatchilikka e‘lon qilib borilishi;

quyidagilar:

Platformaga yuborilgan xabarlarni vakolatli organlar tomonidan ko'rib chiqish va hal etish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Platforma faoliyatini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilab qo'yilishicha, aholi tomonidan platformaga yuborilgan xabarlarni ko'rib chiqish va hal etish doirasida:

tegishli hududda platformaning ishga tushirilishi, u orqali kelib tushadigan xabarlar vakolatli organlar tomonidan belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishi va ijrosi ta'minlanishi ustidan nazorat yuritish uchun - Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari;

xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish uchun vakolatli organlarga yo'naltirish hamda ushbu xabarlar hal etilishi yuzasidan tahliliy monitoringni yuritish uchun platforma operatori Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Raqamli rivojlanish departamenti (keyingi o'rinlarda - Raqamli departament);

platformaga ulanish, u orqali yo'naltirilgan xabarlarni ko'rib chiqish va belgilangan muddatlarda ijrosini ta'minlash hamda natijasi yuzasidan ma'lumotlarni kiritish, shuningdek, platformada o'zlariga birlashtirilgan shaxsiy sahifalarni doimiy ishchi holatda yuritish uchun - belgilangan vakolatli organlar mas'ul va javobgar hisoblanishi;

Platformaga ulanadigan vakolatli organlar ro'yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

vakolatli organlar rahbarlari 2025-yil 1-martga qadar vakolatli organlarni hamda ularning tuman (shahar) bo'linmalarini platformaga ulash choralarini ko'rishi;

bunda Xalq qabulxonalariga platformadan "kuzatuvchi" (ma'lumotlarni tahrirlash huquqsiz) maqomi berilgan holda foydalanishga ruxsat berilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora- tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 24-maydagi PQ-162-son qarori bilan Raqamli departamentga platformani joriy etish bo'yicha mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish huquqi berilganligi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hokimliklarini platformaga ulash va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni Raqamli departament bilan tuziladigan shartnomalarga muvofiq mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

shu bilan birga platformani takomillashtirish, ishchi holatda saqlash hamda doimiy texnik qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq vazifalar va xarajatlar tuzilgan shartnomaga muvofiq Raqamli departament tomonidan amalga oshirilishi to'g'risidagi takliflariga rozilik berilganligi;

belgilanishicha, hududlarda platforma faoliyatini kengaytirish hamda uni texnik qo'llab-quvvatlash uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda Raqamli departament huzurida loyiha ofislari (keyingi o'rinlarda - loyiha ofislari) tashkil etilishi;

bunda:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari loyiha ofislarini joylashtirish uchun ularni zarur xona va infratuzilma tarmoqlari bilan ta'minlashi;

Raqamli departament o'z mablag'lari hisobidan loyiha ofislarini moddiy-texnik jihozlar hamda malakali mutaxassislar bilan to'ldirishi;

quyidagilar loyiha ofislarining asosiy vazifalari etib belgilanganligi: joylarda platformaning uzluksiz ishlashini ta'minlash;

xabarlarni qabul qilish hamda tegishliligi bo'yicha vakolatli organlarga avtomatik tarzda yuborish;

yuborilgan xabarlarning vakolatli organlar tomonidan ko'rib chiqilishi va hal etilishi bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish;

vakolatli organlarga platforma bilan bog'liq tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshirishda ko'maklashish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 4-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi e'tiborga olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov va tuman hokimining o'rinbosari H.Boylarov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-oktabrdagi 695-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov va tuman hokimining o'rinbosari H.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov